



**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA XORIJIY  
INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA  
STRATEGIK YO'NALISHLARI**

**G'ayratova Mohigul**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

ORCID: 0009-0000-9630-1956

[mgayratova@uwed.uz](mailto:mgayratova@uwed.uz)

*i.f.n., dots. Tashpulatova Laylo*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

ORCID: 0000-0002-9142-6191

[ltashpulatova@uwed.uz](mailto:ltashpulatova@uwed.uz)

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda institutsional mexanizmlarning roli va strategik yo'nalishlar tahlil qilingan. Mamlakatdagi mavjud investitsion muhit, davlat siyosati va xalqaro tajriba asosida O'zbekiston uchun mos takliflar ishlab chiqilgan. Xitoy, Estoniya va Singapur kabi mamlakatlar misolida zamonaviy raqamli infratuzilmaning investitsiyalar uchun jozibadorlikni oshirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli transformatsiya, xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, institutsional mexanizmlar, raqamli infratuzilma, Smart Nation (Singapur tajribasi), e-Residency (Estoniya tajribasi), Digital FDI (Xitoy modeli), IT Park Uzbekistan, Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasi, Raqamli xizmatlar eksporti, Sun'iy intellekt va texnologik innovatsiyalar.

**ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ  
ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ  
ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

**Гайратова Мохигуль**

*Университет мировой экономики и дипломатии*

*к.э.н., доц. Ташпулатова Лайло*

*Университет мировой экономики и дипломатии*

**Аннотация.** В статье проанализированы роль институциональных механизмов и стратегические направления привлечения иностранных инвестиций в Узбекистан в условиях цифровой трансформации. На основе анализа текущего инвестиционного климата, государственной политики и международного опыта разработаны рекомендации, адаптированные к условиям Узбекистана. На примере таких стран, как Китай, Эстония и Сингапур, показано, как современная цифровая инфраструктура способствует повышению инвестиционной привлекательности страны.

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, институциональные механизмы, цифровая инфраструктура, Smart Nation (опыт Сингапура), e-Residency (опыт Эстонии), Digital FDI (модель Китая), IT Park Uzbekistan, Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030», экспорт цифровых услуг, искусственный интеллект и технологические инновации.

## INSTITUTIONAL MECHANISMS AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS IN UZBEKISTAN UNDER DIGITAL TRANSFORMATION CONDITIONS

**Gayratova Mohigul**

*University of World Economy and Diplomacy*

*PhD, assoc. prof. Tashpulatova Laylo*

*University of World Economy and Diplomacy*

**Abstract.** *This article analyzes the role of institutional mechanisms and strategic directions in attracting foreign investments to Uzbekistan in the context of digital transformation. Based on the current investment climate, national policies, and international practices, tailored policy recommendations are developed for Uzbekistan. The cases of China, Estonia, and Singapore are examined to demonstrate how advanced digital infrastructure can enhance the attractiveness of a country for foreign investors.*

**Keywords:** *digital transformation, foreign direct investment, investment climate, institutional mechanisms, digital infrastructure, Smart Nation (Singapore case), e-Residency (Estonia case), Digital FDI (China model), IT Park Uzbekistan, Digital Uzbekistan 2030 Strategy, export of digital services, artificial intelligence and technological innovations.*

### **Kirish.**

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar global miqyosda iqtisodiyotni tubdan qayta shakllantirmoqda. Sun'iy intellekt, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, fintech va blockchain kabi texnologiyalar xorijiy investitsiyalar oqimini jalb qilishda muhim omilga aylangan. Zamonaviy investorlar uchun infratuzilmaviy qulayliklar bilan birga, tezkor, shaffof va xavfsiz raqamli muhit mavjudligi raqobatbardosh ustunlik hisoblanmoqda. Bu esa rivojlanayotgan davlatlar oldiga zamonaviy investitsiya siyosatini shakllantirish vazifasini qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham bu boradagi global tendensiyalarni inobatga olgan holda, raqamli transformatsiyani iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismi sifatida ilgari surmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan PQ-4851-sonli qaror ("Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida) raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu strategiya doirasida 2023-yil oxirigacha barcha davlat xizmatlarining 100 foizi raqamlashtirildi, IT-parklar soni 17 taga yetkazildi, va raqamli xizmatlar eksporti hajmi 1 milliard AQSh dollariga yaqinlashdi (IT Park Uzbekistan, 2024).

Shuningdek, Prezidentning 2022-yil 8-iyuldagi PQ-309-sonli qarori bilan "O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash va investorlarga xizmat ko'rsatish tizimini transformatsiya qilish chora-tadbirlari" belgilandi. Qarorga muvofiq, investorlar uchun raqamli "One-stop-shop" xizmatlari, investitsion sohalarni targ'ib qilish bo'yicha axborot tizimlari va elektron arbitraj mexanizmlari joriy etildi.

Mazkur maqolada O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli transformatsiyaning institutsional asoslari, strategik yo'nalishlari va xorijiy tajriba misolida (Estoniya, Singapur, Xitoy) zamonaviy yondashuvlar o'rganiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Raqamli transformatsiya va uning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'siri masalasi nazariy va empirik jihatdan keng o'rganilgan bo'lib, bu boradagi izlanishlarda turli nazariy yondashuvlar qo'llaniladi. Xalqaro investitsiyalar adabiyotida eng ko'p ishlatiladigan yondashuvlardan biri Dunningning (1988) OLI (Ownership–Location–Internalization) paradigmasidir. Ushbu paradigma doirasida "Location" omili mamlakatning infratuzilmasi,

institutsional muhiti va texnologik rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Raqamli infratuzilma, elektron hukumat xizmatlari va onlayn huquqiy platformalar joylashuv ustunligini oshirib, operatsion xarajatlarni kamaytiradi va investorlar uchun riskni kamaytiradi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish nazariyalarida, xususan Lucas (1988) tomonidan ilgari surilgan kapital oqimlari va inson kapitali paradigmasida, xorijiy investitsiyalar oqimining samaradorligi mamlakatdagi malakali ishchi kuchi, bilim va texnologiya darajasiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Bu yondashuv bo'yicha, raqamli transformatsiya orqali yaratilgan imkoniyatlar faqatgina yetarli inson kapitali va institutsional moslashuv mavjud bo'lgandagina to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim rol o'ynaydi. Endogen o'sish nazariyasi vakili Romer (1990) esa texnologiya va bilimni iqtisodiy o'sishning ichki dvigateli sifatida ko'radi. Raqamli texnologiyalar innovatsiyalarni tezroq tarqatib, yuqori qo'shilgan qiymatga ega sohalarga sarmoyalarni yo'naltirish imkonini beradi. Bu yondashuvga ko'ra, startaplarni qo'llab-quvvatlash, Research and Development (tadqiqot va ishlanmalar) faoliyatiga soliq imtiyozlari berish kabi choralar raqamli muhitda sifatli xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytiradi.

Institutsional nazariyalar, jumladan North va Acemoglu hamda Robinson (2012) tomonidan ilgari surilgan qarashlar, raqamli transformatsiyaning samaradorligi mamlakatdagi institutlar sifatiga bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Qonun ustuvorligi, shaffoflik, shartnomalar ijrosi va samarali tartibga soluvchi mexanizmlar raqamli xizmatlar va infratuzilmaning investitsion jozibadorlikka aylanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion rivojlanish bo'yicha Freeman va Lundvall (2011) tomonidan ishlab chiqilgan milliy innovatsion tizimlar konsepsiyasi esa, texnologik taraqqiyot va investitsiyalar oqimini ta'minlash uchun universitetlar, ilmiy markazlar, xususiy sektor va davlat institutlari o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyatini ochib beradi. Bunday tizimda IT parklar, texnoparklar va inkubatorlar faoliyati xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bir qatorda, ularni mahalliy iqtisodiyotga integratsiya qilishga xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, raqamli transformatsiyaning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'siri masalasida tadqiqotlar natijalari bir xil emas. Birinchi guruh tadqiqotlar raqamli infratuzilma va elektron hukumat xizmatlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jozibadorligini oshirishi, byurokratik xarajatlarni kamaytirishi va investorlar ishonchini mustahkamlashini empirik dalillar bilan tasdiqlaydi (UNCTAD, 2024; OECD, 2024). Ikkinchi guruh tadqiqotchilar esa bu jarayonni skeptik baholab, texnologik imkoniyatlarning o'zi yetarli emasligini, muvaffaqiyat uchun kuchli institutlar va moslashuvchan mehnat bozori zarurligini qayd etadi. Masalan, Alesina va Dollar (2000) ishlarida resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi va siyosiy motivatsiyalarning investitsion samaradorlikni pasaytirishi ko'rsatilgan. Uchinchi guruh izlanishlarida esa, xuddi Burnside va Dollar (2000) hamda Svensson (2000) tadqiqotlarida bo'lgani kabi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya oqimiga raqamli omillar ijobiy ta'sir ko'rsatishi, ammo bu ta'sir institutsional sifat, inson kapitali va makroiqtisodiy barqarorlik kabi shartlarga bog'liq ekani ta'kidlanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqotda natijalarning ilmiy asoslanganligini ta'minlash maqsadida sifat va miqdoriy tahlil yondashuvlari uyg'unlashtirilgan holda qo'llanildi.

Birinchi bosqichda, statistik tahlil orqali O'zbekiston Respublikasida va ayrim ilg'or davlatlarda 2020–2024 yillar oralig'ida raqamli transformatsiya jarayonlari hamda ularning xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'siri o'rganildi. Bunda xorijiy investitsiya hajmi, IT xizmatlari eksporti, raqamli infratuzilmaning rivojlanish ko'rsatkichlari va elektron xizmatlar soni kabi indikatorlar tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichda, qiyosiy (komparativ) tahlil usuli yordamida xalqaro tashkilotlar — BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD), Jahon banki (World Bank), Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (ITU) hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)

— tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida O'zbekistonning investitsion jozibadorlik ko'rsatkichlari Xitoy, Estoniya va Singapur davlatlari bilan solishtirildi.


Uchinchi bosqichda, normativ-huquqiy tahlil amalga oshirilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining investitsion siyosat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda IT Park Uzbekistan faoliyatiga doir rasmiy ochiq ma'lumotlar o'rganildi. Bu hujjatlar va ma'lumotlar raqamli transformatsiya jarayonida xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim o'rin tutuvchi institutsional asoslar sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining investitsion siyosat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari, shuningdek, mamlakatning raqamli transformatsiya yo'nalishidagi ustuvor vazifalarini belgilab beruvchi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategik hujjatiga tayangan holda shakllantirildi. Bundan tashqari, IT Park Uzbekistan faoliyatiga oid ochiq statistik ko'rsatkichlar, BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Jahon banki (World Bank) hamda Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) tomonidan taqdim etilgan tahliliy va statistik ma'lumotlar keng qo'llanildi. Shuningdek, Xitoy, Estoniya va Singapur mamlakatlarining raqamli infratuzilma va investitsiya siyosati bo'yicha ilg'or amaliy tajribalari o'rganildi va ular O'zbekiston sharoitiga qiyosiy tahlil asosida tatbiq etish imkoniyatlari baholandi. Tadqiqotning nazariy asosini esa xalqaro investitsiyalarni jalb qilish omillarini tushuntiruvchi OLI (Ownership – Location – Internalization) paradigmasi tashkil etdi. Tahlil uchun olingan ma'lumotlar 2020–2024 yillar oralig'ida jamlangan bo'lib, regressiya usullari orqali raqamli transformatsiya indikatorlari bilan xorijiy investitsiyalar oqimi o'rtasidagi bog'liqlik va tendensiyalar aniqlangan. Shuningdek, sifat tahlili doirasida ekspert baholari va xalqaro tajriba asosida institutsional mexanizmlarning samaradorligi baholandi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O'zbekistonda raqamli infratuzilmani kengaytirish, IT xizmatlari eksportini oshirish va zamonaviy texnologik yechimlarni joriy etish orqali xorijiy investorlar uchun qulay muhit shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining amaliy bosqichlari doirasida raqamli xizmatlar sohasi sezilarli darajada rivojlanib, mamlakatning eksport tarkibida IT xizmatlari salmog'i tobora ortib bormoqda. 2023-yilda IT Park Uzbekistan a'zolari tomonidan amalga oshirilgan IT xizmatlari eksporti 344 million dollarni tashkil etdi (+92 % o'sish) (Tadviser, 2024), bu ko'rsatkichdagi asosiy bozorlar — AQSH (151 mln \$), Yevropa va Buyuk Britaniya (82,5 mln \$), MDH (69 mln \$), Osiyo–Tinch okeani (27,5 mln \$) va MENA (14 mln \$) edi (IT Park Uzbekistan, 2024). 2024-yilning birinchi to'qqiz oyida eksportga yo'naltirilgan kompaniyalar soni 936 taga yetdi, bu yil boshidan beri 70% ga o'sish natijasidir (Kun.uz., 2024). Shu davr mobaynida IT Park rezidentlari soni esa 1 500 dan oshib, ular orasida 100 dan ortiq xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalar faoliyat yurita boshlagan. Elektron xizmatlar soni ham keskin ko'payib, 2021-yildagi 150 tadan 2024-yilda 300 tadan oshgan.

2023-yilda O'zbekistonga jalb qilingan to'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 8,2 milliard dollargacha yetgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 11,9 milliard dollarga ko'tarilib, 53,6 foizlik o'sishga erishdi. To'g'ridan -to'g'ri xorijiy investitsiyalar YalMdagi ulushi esa 10,3% ni tashkil etib, bir yil avvalgiga nisbatan 2,4 foizlik punktga ortdi. Umumiy investitsiya oqimi bo'yicha esa 2024-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar 27,6% ga oshib (UZDaily, 2024), o'zlashtirilgan investitsiyalar esa 34,8 milliard dollarga yetdi (bu raqam ichida 31,8 milliard \$ – to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, qolgan qismi kreditlar va xalqaro moliya orqali o'zlashtirilgan mablag'lardir) (UZA, 2024) – bu esa o'tgan yilga nisbatan 1,6 barobarga ko'paygan natijadir (UZA, 2024). To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar asosan energetika, sanoat, axborot texnologiyalari, transport va logistika kabi strategik tarmoqlarga yo'naltirilgan.



**1-rasm. O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi (net inflows)**

(2000–2024 yillar, milliard AQSh dollari)

**Manba:** 2000-2024-yillarda O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi (mlrd AQSh dollari), World Bank WDI va ochiq statistik manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.


O'zbekistonda raqamli transformatsiya asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha salmoqli natijalarga erishilgan bo'lsa-da, tizimda hal etilishi zarur bo'lgan muammolar ham mavjud. Avvalo, elektron xizmatlar sifati va tezligi mintaqalar kesimida bir xil darajada emas, bu esa ayrim hududlarda investorlar uchun imkoniyatlarni cheklab qo'yimoqda. Shuningdek, investitsion xavfsizlik masalalari, xususan, huquqiy shaffoflik va shartnomalarning to'liq ijro etilishi bo'yicha dolzarb muammolar mavjud. Sun'iy intellekt, fintech va blockchain sohalarida ham normativ-huquqiy asos yetarlicha mukammal ishlab chiqilmagan. Bundan tashqari, "one-stop-shop" xizmatlarining to'liq integratsiyalashgan elektron platforma sifatida samarali ishlamasligi ham muhim kamchiliklardan biridir.

Xalqaro tajriba bunday muammolarni bartaraf etishda aniq yondashuvlarni namoyon etadi. Masalan, Estoniyada investorlar uchun barcha xizmatlar yagona elektron tizim orqali taqdim etiladi. Singapurda maxsus investitsiya agentliklari – Economic Development Board (EDB) – raqamli shaklda to'liq xizmat ko'rsatadi. Xitoyda esa raqamli investitsiya hududlari qat'iy reglament asosida boshqariladi. Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun ham ahamiyatli bo'lib, mamlakatda raqamli infratuzilmani hududlar kesimida teng rivojlantirish, investitsiya jarayonlarining raqamlashtirilgan monitoring tizimini yo'lga qo'yish hamda innovatsion texnologiyalar sohasidagi investitsiyalar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Lekin vaziyatni yanada yaxshilash uchun bir qancha xorij tajribasidan foydalanish ham o'rinli. Raqamli transformatsiya sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida ilg'or xorijiy tajriba o'rganilishi, O'zbekiston uchun zamonaviy institutsional va texnologik yechimlarni shakllantirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Estoniya, Singapur va Xitoy tajribalari bu yo'nalishda e'tiborga loyiqdir.

Estoniya Yevropada raqamli davlat konsepsiyasini to'liq amaliyotga joriy etgan mamlakat sifatida tanilgan. Mamlakat tomonidan 2014-yildan joriy etilgan e-Residency dasturi orqali 160 dan ortiq mamlakat fuqarolari Estoniyada masofadan turib kompaniya ochish va yuritish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Misol uchun, Estoniya e-Residency dasturi 2024-yilga borib global auditoriyasini 126 500+ shaxsga kengaytirdi va ular tomonidan masofadan turib 36 000+ kompaniya tashkil etildi, bu o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishdir. Ularning 30 200+

tashabbusi 2023-yilda amalga oshirilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich yanada ko'tarilgan (Residency official dashboard, 2025). 2025-yil may oyi ma'lumotiga ko'ra Estoniyada e-Residency dasturi orqali 483 ta yana yangi kompaniya ishga tushirildi. Bugungi kunda Estoniya davlat xizmatlarining deyarli 99 foizini onlayn ko'rinishda taqdim etmoqda. Bu esa nafaqat mahalliy tadbirkorlar, balki xorijiy investorlar uchun ham yuqori darajadagi qulayliklar yaratmoqda.



**2-rasm. Mamlakatlar kesimida e-rezidentlar va ular tomonidan tashkil etilgan kompaniyalar soni (ming dona)**

**Manba:** Estoniya e-Residency rasmiy portali – Dashboard, <https://www.e-resident.gov.ee/dashboard>.

Singapur esa o'zining Smart Nation strategiyasi yordamida raqamli iqtisodiyot va investitsiyalar uchun qulay infratuzilma yaratdi. Bu strategiya doirasida sog'liqni saqlash, transport, elektron hukumat va biznes yuritish tizimlari to'liq yozilgan. Investitsiyalarni Rivojlantirish Kengashi (EDB) esa investorlar uchun moliyaviy, yuridik va biznes xizmatlarini elektron platformalar orqali taqdim etadi, bu esa sarmoya jalb qilish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi.

EDB ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakat FAI (Fixed Asset Investment) majburiyatlari 12,7 milliard \$ ni, TBE (Total Business Expenditure) esa 8,9 milliard \$ni tashkil etdi. Ushbu loyihalar kelasi besh yil ichida 20 045 yangi ish o'rni yaratishi kutilmoqda va yillik qo'shilgan qiymat 26,7 milliard \$ deb baholanadi (Singapore Economic Development Board, 2024). 2024-yilga kelib esa FAI majburiyatlari 13,5 milliard \$, TBE esa 8,4 milliard \$ darajasiga yetdi. Ushbu investitsiyalar natijasida keyingi besh yilda tahminan 18 700 ish o'rinlari yaratilishi va 23,5 milliard \$ yillik qo'shilgan qiymat hosil bo'lishi kutilmoqda (The Business Times, 2025).

Xitoy tajribasi esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda raqamli texnologiyalarni chuqur integratsiya qilish orqali sezilarli natijalarga erishganini ko'rsatadi. Jumladan, mamlakatda Shenzhen, Hangzhou kabi yirik sanoat va texnologik markazlarda raqamli erkin savdo zonalari (Digital Free Trade Zones) tashkil etilgan bo'lib, ular xorijiy investorlar uchun zamonaviy raqamli infratuzilma, tezkor xizmatlar va soliq yengilliklari asosida yuqori darajadagi qulayliklar yaratmoqda. Masalan, Shenzhen shahrida 2023-yilda jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 9,01 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, Hangzhou shahrida bu ko'rsatkich 8,83 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu zonalar ayniqsa sun'iy intellekt,

blockchain texnologiyalari, raqamli valyutalar va e-commerce platformalari asosida shakllangan ekotizim orqali xalqaro investorlar uchun raqobatbardosh muhit yaratmoqda. Bundan tashqari, Xitoyning yuqori texnologiyalar sohasiga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 2023-yilda 61 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich mamlakatda texnologik innovatsiyalarni rag'batlantirish va digital infratuzilmani kengaytirishga bo'lgan strategik yondashuv samarasidir.

1-jadval

**Xitoyning yuqori texnologiyali sohalariga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) hajmining yillik o'sish sur'atlari (2019–2023)**

| Yil  | Investitsiya hajmi (mlrd \$) | Yillik o'sish sur'ati (%) |
|------|------------------------------|---------------------------|
| 2019 | 39,1                         |                           |
| 2020 | 61,0                         | 55,4%                     |
| 2021 | 71,5                         | 17,1%                     |
| 2022 | 61,0                         | -14,3%                    |
| 2023 | 61,0                         | 0%                        |

**Manba:** China Daily, 2024-yil 22-yanvar. "China's high-tech industries attract billions in foreign investment." <https://investinchina.chinadaily.com.cn/s/202401/22/WS65ae3375498ed2d7b7ea608f/chinas-high-tech-industries-attract-billions-in-foreign-investment.html>.

Xitoy hukumati tomonidan joriy etilgan pilot erkin savdo zonalari doirasida 2600 dan ortiq xorijiy investitsiyalarni rag'batlantiruvchi institutsional mexanizmlar ishlab chiqilgan va ularning 302 tasi butun mamlakat bo'yicha muvaffaqiyatli joriy etilgan. Bunday kompleks yondashuv natijasida Xitoy nafaqat kapital oqimini jalb qilmoqda, balki raqamli transformatsiya orqali ushbu kapitalni yuqori samarali yo'nalishlarga yo'naltirishga erishmoqda. World Bank (2023) hisobotida erkin savdo va davlat xizmatlarini raqamlashtirish asosida yaratilgan raqamli infratuzilma (digital public infrastructure) Xitoy kabi mamlakatlarda investorlar uchun qulay muhit yaratishda asosiy omil sifatida tan olingan. Xitoyning xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi ilg'or tajribasi, ayniqsa raqamli transformatsiyaga asoslangan strategiyasi, ko'plab rivojlanayotgan davlatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakat tomonidan ishlab chiqilgan "Digital FDI" modeli – ya'ni raqamli infratuzilma, texnologik zonalar va sun'iy intellekt platformalari asosida xorijiy sarmoyani jalb etish mexanizmi – 2024-yilgi "UNCTAD World Investment Report 2024: Investment facilitation and digital government" hisobotida alohida ilg'or yondashuv sifatida e'tirof etilgan. Hisobotda Xitoyda investorlar uchun yaratilgan tartibga soluvchi qulayliklar, axborot texnologiyalarini davlat boshqaruviga integratsiya qilish (digital government) hamda sohani diversifikatsiya qilish strategiyalari chuqur tahlil qilinadi (UNCTAD, 2024).

Biroq 2024-yil natijalariga ko'ra, Xitoyda foydalanilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 116,2 milliard AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan sezilarli darajada kamaydi (2023-yilda bu ko'rsatkich 163,3 milliard dollarni tashkil etgan edi) (AMRO, 2025). Mazkur pasayishga qaramay, Xitoy hukumati tomonidan faol qo'llanilayotgan raqamli erkin savdo zonalari (DFTZ) va raqamli davlat xizmatlari orqali investitsiya muhitini uzoq muddatli istiqbolda diversifikatsiyalash va barqarorlashtirish bo'yicha samarali choralar ko'rilmogda. Bu, o'z navbatida, xorijiy investorlar uchun yanada raqobatbardosh va innovatsion ekotizim shakllanishini ta'minlamoqda. Ushbu yondashuv, ayniqsa raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning turli sohalariga chuqur integratsiya qilish orqali, xorijiy kapital oqimini strategik tarmoqlarga yo'naltirish imkonini bermoqda. Demak, Xitoyning "Digital FDI" modeli raqamli transformatsiya sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda institutsional va infratuzilmaviy yondashuvning uyg'un namunasi sifatida e'tiborga loyiqdir.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda quyidagi strategik yo'nalishlar alohida e'tiborni talab qiladi:

✓ IT, fintech va elektron savdo (e-commerce) sohaslarini ustuvor yo'nalishlar sifatida rivojlantirish;

✓ Xalqaro standartlarga mos elektron raqamli imzo tizimini joriy etish orqali transchegaraviy shartnomaviy munosabatlarni soddalashtirish;

✓ Mahalliy startaplar bilan xorijiy sarmoyadorlarni bog'lovchi raqamli platformalarni yaratish, buning orqali innovatsion ekotizimda ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish.

Raqamli infratuzilma sohasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, maqsadli sohalarda investitsiya oqimining faollashuvi bilan bir qatorda, O'zbekistonning umumiy investitsion muhitida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu esa mamlakatning xalqaro investorlarga nisbatan ishonchliligini oshirib, uni Markaziy Osiyo mintaqasida raqobatbardosh va jozibador investitsiya yo'nalishiga aylantirmoqda. Hukumat tomonidan raqamli imkoniyatlarni kengaytirishga, tartibga soluvchi barqaror muhitni ta'minlashga bo'lgan e'tibor ushbu yo'nalishdagi natijalarni mustahkamlab bormoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

Umuman olganda raqamli xizmatlarning keng qamrovliligi, ayniqsa investorlar uchun masofaviy boshqaruv, ishonch va shaffoflik tamoyillariga asoslangan tizimlarning joriy etilishi xorijiy investitsiyalar oqimiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jihatlar bugungi global iqtisodiy muhitda sarmoyadorlar uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, O'zbekiston ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida aynan raqamli infratuzilmani rivojlantirish, davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish va investorlar bilan interaktiv aloqa kanallarini yaratish orqali investitsion muhitni tubdan yaxshilash imkoniyatiga ega.

O'zbekistonda raqamli transformatsiya sharoitida xorijiy investitsiyalarni yanada faol jalb etish va investitsion muhitni barqaror rivojlantirish uchun quyidagi institutsional takliflar ilgari surish o'rinli:

1. Investorlar uchun kengaytirilgan funksional imkoniyatlarga ega raqamli "One-stop-shop" platformasini yaratish. Bu tizim barcha zarur hujjatlarni raqamli tarzda taqdim etish, litsenziya va ruxsatnomalarni olish, shuningdek, investorlar murojaatlarining tezkor ko'rib chiqilishini ta'minlaydi.

2. Raqamli arbitraj va elektron shartnoma ijrosini ta'minlovchi huquqiy platformalarni rivojlantirish. Bu investorlar huquqining kafolatlanishini ta'minlab, huquqiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. IT infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida maxsus raqamli investitsiya hududlarini tashkil etish. Xususan, Xitoyning Shenzhen va Hangzhou shaharlaridagi "Digital Free Trade Zones" modeli asosida yuqori texnologik xizmatlar va startaplar uchun qulay biznes muhiti yaratish mumkin.

4. Yagona axborot bazasi orqali investitsion salohiyatga ega tarmoqlarni tizimli tarzda targ'ib qilish. Bu orqali investorlar o'z faoliyat yo'nalishlariga mos investitsiya loyihalarini tezda aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli texnologiyalarni iqtisodiy va me'yoriy-huquqiy tizimlarga ongli tarzda integratsiya qilish jarayonlari nafaqat ish yuritishni soddalashtirdi, balki yanada shaffof va dinamik biznes muhitini shakllantirishga xizmat qildi. Bu transformatsiya O'zbekistonning global biznes va investitsiya reytinglaridagi o'sishida o'z aksini topmoqda hamda mamlakatning xorijiy kapital uchun istiqbolli maydon sifatidagi obro'sini mustahkamlab bormoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo'lida harakat qilayotgan boshqa rivojlanayotgan davlatlar uchun O'zbekiston raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o'sish va taraqqiyotni jadallashtirishdagi muhim rolini ko'rsatib beruvchi kuchli model bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda raqamli transformatsiya xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, mavjud institutsional muammolar, normativ-huquqiy

nomuvofiqliklar va raqamli xizmatlar cheklanganligi investorlar faoliyatini sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli, maqolada keltirilgan institutsional takliflar va xalqaro tajribaga asoslangan strategiyalar orqali O'zbekiston investitsion jozibadorligini yanada oshirishi mumkin.

### **Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:**

Acemoglu, D., Robinson, J. A. (2012) *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. – New York: Crown Business, – 529 p.

Alesina, A., & Dollar, D. (2000). Who Gives Foreign Aid to Whom and Why? *Journal of Economic Growth*, 5(1), 33–63. <https://doi.org/10.1023/A:1009874203400>.

AMRO. (2025, April). Is Declining FDI into China a Cause for Concern? Analytical Note. ASEAN+3 Macroeconomic Research Office. <https://amro-asia.org/wp-content/uploads/2025/04/Analytical-Note-Is-Declining-FDI-into-China-a-Cause-for-Concern-clean-1.pdf>.

Burnside, C., & Dollar, D. (2000). Aid, Policies, and Growth. *American Economic Review*, 90(4), 847–868. <https://doi.org/10.1257/aer.90.4.847>.

Dunning, J.H. (1988) The Eclectic Paradigm of International Production: A Restatement and Some Possible Extensions. *Journal of International Business Studies*, Vol. 19, No. 1, pp. 1–31. <https://doi.org/10.1057/palgrave.jibs.8490372>.

E Residency official dashboard. (2025). Number of e Residents and companies established. <https://www.e-resident.gov.ee/dashboard>.

IT Park Uzbekistan. (2024). Uzbekistan's export geography expands to 78 countries: Q3 results. <https://it-park.uz/en/itpark/news/uzbekistan-s-export-geography-expands-to-78-countries-q3-results>.

Kun.uz. (2024, October 29). Uzbekistan sees 70% surge in IT service exporters over nine months. <https://kun.uz/en/news/2024/10/29/uzbekistan-sees-70-surge-in-it-service-exporters-over-nine-months>.

Lucas, R.E. (1988) On the Mechanics of Economic Development. *Journal of Monetary Economics*, Vol. 22, No. 1, pp. 3–42. Stanford University, [https://web.stanford.edu/~klenow/Lucas\\_Mechanics.pdf](https://web.stanford.edu/~klenow/Lucas_Mechanics.pdf).

Lundvall, B.-A., Gregersen, B., Johnson, B., & Lorenz, E. (2011). *Innovation Systems and Economic Development*. Research Report. Bogotá: Colciencias.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UZA). (2024). 2024 yilda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish 1,6 barobarga oshgan. Olingan: 1-avgust, 2025-yil, <https://uza.uz/oz/posts/2024-yilda-xorijiy-investitsiyalarni-ozlashtirish-16-barobarga-osgan> 686487.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UZA). (2024). O'tgan yilda 31,8 mlrd. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Olingan: 1-avgust, 2025-yil, <https://uza.uz/oz/posts/otgan-yilda-318-mlrd-dollar-togridan-togri-xorijiy-investitsiyalar-ozlashtirildi> 699316.

OECD (2024). *OECD Digital Economy Outlook 2024 (Volume 2): Policy Priorities and Governance*. OECD Publishing, Paris. [https://www.oecd.org/publications/oecd-digital-economy-outlook-2024-volume-2\\_3adf705b-en.html](https://www.oecd.org/publications/oecd-digital-economy-outlook-2024-volume-2_3adf705b-en.html).

Romer, P.M. (1990). Endogenous Technological Change. *Journal of Political Economy*, 98(5, Part 2), S71–S102. <https://paulromer.net/posts/2015/pdf/Endogenous.pdf>.

Singapore Economic Development Board. (2024, January 30). Singapore draws S\$12.7 b in fixed asset investments in 2023, set to create over 20,000 jobs. <https://www.edb.gov.sg/en/business-insights/insights/singapore-draws-12-7b-in-fixed-asset-investments-in-2023-set-to-create-over-20000-jobs.html>.

Svensson, J. (2000). Aid, Growth and Democracy. *Economics & Politics*, 11(3), 275–297. <https://doi.org/10.1111/1468-0343.00062>.

TAdviser. (2024). According to the results of 2023, the export of IT services from Uzbekistan reached \$344 million. [https://tadviser.com/index.php/Article:ICT\\_market\\_of\\_Uzbekistan](https://tadviser.com/index.php/Article:ICT_market_of_Uzbekistan).

The Business Times. (2025, February). Singapore's investment commitments in 2024 rose 6.3% to S\$13.5 billion: EDB. <https://www.businesstimes.com.sg/singapore/singapores-investment-commitments-2024-rose-63-to-s13-5-billion-edb>.

UNCTAD. (2024). World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government. Geneva: United Nations. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2024>.

UNCTAD. World Investment Report (2024): Investment Facilitation for Development. United Nations Conference on Trade and Development, Geneva, 2024. <https://unctad.org/webflyer/world-investment-report-2024>.

UZDaily. (2024). O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2024-yilda 27.6% ga oshdi. Olingan: 1-avgust, 2025-yil, <https://uzdaily.uz/uz/ozbekistonda-asosiy-kapitalga-kiritilgan-investitsiyalar-2024-yilda-276-ga-osdi>.

World Bank. (2023). Digital Progress and Trends Report 2023. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/digital-progress-and-trends-report>.